International Renewable Energy Agency. (2025). *Renewable power generation costs in 2024*. IRENA.

Organisation for Economic Co-operation and Development. (2025). *Roadmap for sustainable investment policy reforms in Uzbekistan: Promoting green investment in Uzbekistan*. OECD Publishing.

World Bank. (2024). *Uzbekistan to build new solar plant and first battery energy storage system with World Bank Group support*. World Bank.

World Bank. (2025). *Uzbekistan to enhance energy production through hydropower with World Bank support*. World Bank.

ЎЗБЕКИСТОН БАНКЛАРИДА МУАММОЛИ КРЕДИТЛАРНИНГ ҲОЛАТИ ВА УЛАРНИ БОШҚАРИШ МАСАЛАЛАРИ

Юсупов Азизбек Бахтиёр ўғли
"Агробанк" АТБ Яккабоғ филиали бошқарувчи ўринбосари

Аннотация. Мазкур тезисда Ўзбекистон тижорат банкларида муаммоли кредитларнинг ҳолати, уларнинг кредит портфелидаги салмоғи,

муаммоли кредитларнинг юзага келиш сабаблари ҳамда уларни камайтириш йўллари таҳлил қилинади. Таҳлилда Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий статистик маълумотларидан фойдаланилган.

Калит сўзлар: кредит, муаммоли кредитлар, кредит портфели, кредит риски, тижорат банклари, банк активлари, кредит сиёсати.

Тижорат банклари кредит операциялари асосий даромад манбаларидан бири ҳисобланади. Бироқ кредит портфелининг сифат ёмонлашуви банкларнинг ликвидлиги, даромадлилиги ва молиявий барқарорлигига салбий таъсир кўрсатади. Шу жиҳатдан муаммоли кредитларни назорат қилиш банк риск-менежментининг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади.

Ўзбекистон банк тизимида кредитлаш ҳажмининг ўсиши билан бир қаторда муаммоли кредит (НПЛ) кўрсаткичларини назорат қилишга ҳам катта эътибор қаратилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Марказий банки маълумотларига кўра, 2026 йил 1 июль ҳолатида тижорат банкларининг жами кредит портфели 642,8 трлн сўм, муаммоли кредитлар ҳажми эса 22,94 трлн сўмни ташкил этган. НПЛнинг жами кредитлардаги улуши 3,6 фоиз бўлган.

1-жадвал. Ўзбекистон тижорат банкларида кредит портфели ва муаммоли кредитлар (НПЛ) динамикаси. 2026 йил 1-июл холатига.

№	Банк номи	Кредит портфель, млярд. сўм	Муаммоли кредилар (НПЛ), млярд. сўм	Муаммоли кредитларнинг жами кредитлардаги улуши %
	Жами кредитлар	642810	22943	3.6
	Давлат банклари	422259	16446	3.9
1	Ўзмиллийбанк	107 128	3 208	3,0
2	Агробанк	91 210	3 191	3,5
3	Ўзсаноатқурилишбанк	60 989	1 987	3,3
4	Асака банк	40 427	1 874	4,6
5	Халқ банки	37 397	1 533	4,1
6	Бизнесни ривожлантириш банки	25 777	1 486	5,8
7	Микрокредитбанк	22 840	1 796	7,9
8	Алоқа банк	21 650	782	3,6
9	Турон банк	14 841	588	4,0
10	Нодавлат банклари	220550	6497	2.9

Таҳлил қилинаётган даврда давлат улуши мавжуд банкларда кредитлар

ҳажми 422,3 трлн сўм, НПЛ ҳажми 16,45 трлн сўм ва даражаси 3,9 фоизни ташкил этган. Бу кўрсаткич давлат улуши мавжуд банкларда муаммоли кредитлар салмоғи тизим бўйича ўртача кўрсаткичдан юқорироқ эканини кўрсатади.

Йил	Жами кредитлар, млрд сўм	Муаммоли кредитлар (НПЛ), млрд сўм	НПЛ улуши, %
2022	326 386	16 974	5,2
2023	390 049	13 992	3,6
2024	471 406	16 621	3,5
2025	533 121	21 185	4,0
2026	642810	22943	3.6

1-жадвал. Ўзбекистон тижорат банкларида НПЛ динамикаси

Айрим банклар кесимида НПЛ даражасида сезиларли фарқ мавжуд. Масалан, 2026 йил 1 июль ҳолатида:

- Ўзмиллийбанкда — 3,0 фоиз;
- Агробанкда — 3,5 фоиз;
- Ўзсаноатқурилишбанкда — 3,3 фоиз;
- Асака банкда — 4,6 фоиз;
- Халқ банкида — 4,1 фоиз;
- Бизнесни ривожлантириш банкида — 5,8 фоиз;
- Микрокредитбанкда — 7,9 фоизни ташкил этган.

Муаммоли кредитларнинг асосий сабаблари сифатида қуйидагиларни келтириб ўтиш мумкин.

1.Қарз олувчиларнинг молиявий ҳолати ёмонлашуви-даромадларнинг камайиши ва пул оқимларининг етарли эмаслиги кредитни қайтариш қобилиятини пасайтиради.

2. Кредит рискларини баҳолашдаги камчиликлар - қарз олувчининг реал тўлов қобилияти, пул оқими ва қарз юки етарли даражада баҳоланмаслиги.
3. Кредит портфелининг айрим тармоқларда концентрациялашуви - муайян тармоқдаги иқтисодий муаммолар бир вақтнинг ўзида кўплаб қарз олувчиларнинг тўлов қобилиятига таъсир қилиши мумкин.
4. Гаров таъминоти билан боғлиқ рисклар - гаров қийматининг пасайиши ёки уни реализация қилишдаги қийинчиликлар банк зарарини ошириши мумкин.

5. Кредит мониторинги самарадорлигининг пастлиги - кредит ажратилгандан кейин қарз олувчининг молиявий ҳолатини мунтазам кузатиб бориш муҳим аҳамиятга эга.

Муаммоли кредитларни камайтириш учун аввало, кредит ажратишдан олдинги таҳлил сифатини ошириш зарур. Бунда қарз олувчининг кредит тарихи, даромадлари, қарз юки ва пул оқимларини комплекс баҳолаш мақсадга мувофиқдир.

Шунингдек, банкларда амалдаги мавжуд тизимни олдиндан огохлантирувчи тизимга диверцификациялаш лозим. Кредит бўйича кечикишлар, ҳисоб варақлардаги пул айланмасининг пасайиши ёки молиявий кўрсаткичларнинг ёмонлашиши муаммоли кредит юзага келишидан олдин аниқланиши керак.

Муаммоли кредитларни реструктуризация қилиш, қайта молиялаштириш ва уларни ундириш механизмларини такомиллаштиришга алохида аҳамият қаратиш зарур.

Мақсадли, дастурий, имтиёзли кредитлар бўйича тармоқ ёки мижозлар гуруҳига юқори даражада боғланиб қолишнинг олдини олиш лозим.

Ўзбекистон банк тизимида муаммоли кредитлар даражаси ҳозирча умумий кредит портфелига нисбатан нисбатан паст даражада бўлса-да, айрим банкларда НПЛ улушининг юқорилиги ушбу масалага доимий эътибор қаратиш зарурлигини кўрсатади.

Кредит рискларини баҳолаш сифатини ошириш, рақамли скоринг тизимларидан самарали фойдаланиш, эрта огоҳлантириш механизмларини жорий этиш, кредит портфелини диверсификация қилиш ҳамда муаммоли кредитларни ундириш жараёнларини такомиллаштириш НПЛ даражасини пасайтиришнинг асосий йўналишлари сифатида белгиланиши лозим.

Шу сабабли, банкларда кредит скоринги, эрта огоҳлантириш тизимлари, рақамли мониторинг, кредит портфелини диверсификация қилиш ва муаммоли кредитларни реструктуризация қилиш механизмларини ривожлантириш муҳим ҳисобланади.

PREFERENCES FOR LOCAL MANUFACTURERS IN PUBLIC PROCUREMENT: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND THE PRACTICE OF UZBEKISTAN

Gafurov Temur Bahrom ogli
TDIU Independent Researcher PhD

temurgafurov05@gmail.com

Abstract. This thesis examines the economic and legal significance of granting preferences to local manufacturers in state procurement, analyses the role of this mechanism in supporting the national economy, and reviews international experience. Specifically, the study investigates the unique features, advantages, and disadvantages of preferential treatment for local manufacturers in the United States, the European Union, China, and other countries. Furthermore, it analyzes the legal mechanisms and practical implementation aimed at supporting local manufacturers within the state procurement system of the Republic of Uzbekistan. The research results substantiate the importance of granting preferences in state procurement for developing national production, enhancing competitiveness, and ensuring economic security. Additionally, recommendations are developed to further improve this sector.

Keywords: public procurement, local manufacturer, preference, national economy, competitiveness, e-procurement, international experience, import substitution, state support, economic security.

Nowadays, Public procurement is one of the important tools for the rational and efficient use of state funds, supporting the economy, and creating a healthy competitive environment. Public procurement not only meets state needs but also directly impacts the socio-economic development of the country. Therefore, most countries use public procurement as an important instrument of economic policy, paying special attention to supporting local manufacturers.

The practice of granting preferences to local manufacturers is widely applied in many countries as a means of developing the national economy, increasing domestic production, and strengthening economic security. Such preferences enable local enterprises to actively participate in government contracts and contribute to their financial stability. As a result, new production capacities and jobs are created, employment levels increases.

Moreover, supporting local manufacturers helps reduce dependence on imported goods, ensures the circulation of financial resources within the country, and enhances the competitiveness of domestic products. Particularly under conditions of global economic instability and disruptions in international supply chains, prioritizing local manufacturers in public procurement has become one of the key factors in maintaining economic resilience. Therefore, improving preference mechanisms in public procurement and studying advanced international practices in this field have significant scientific and practical importance.

The Republic of Uzbekistan has also introduced legal mechanisms aimed at supporting local manufacturers within its public procurement system. At the same time, studying international experience and conducting a comparative analysis with national practice is essential for further improving this area.

International practice demonstrates that policies such as the **"Buy American"** program in the United States, national producer support programs in China, local content requirements in Saudi Arabia, and preferential mechanisms for small businesses in South Africa are widely used in public procurement. These experiences indicate that supporting local manufacturers is an important factor in economic development.

A number of legal and organizational measures are being implemented in the Republic of Uzbekistan to improve the public procurement system and support local manufacturers. Special attention is being given to stimulating domestic production through the provision of certain preferences for national goods and services in public procurement. In this regard, studying the experience of foreign countries and comparing it with Uzbekistan's practice has considerable scientific and practical significance for the further development of the public procurement system.

At the same time, granting preferences to local manufacturers in public procurement may also create certain challenges. In particular, excessive application of such preferences may restrict competition. As a result, in some cases, the participant receiving preferential treatment may win a contract even if it does not offer the most favorable price or quality. This may negatively affect the efficiency of public spending.

Although supporting local manufacturers is of great importance in Uzbekistan, ensuring transparency, fairness, and healthy competition in the application of preferences remains a pressing issue. In some instances, domestic products may receive preferential advantages despite having lower quality or technical characteristics compared to foreign alternatives. Furthermore, insufficiently clear criteria for determining the status of a local manufacturer may lead to varying interpretations and practical difficulties.

Therefore, the mechanism for granting preferences in public procurement should not only protect the interests of local producers but also comply with the principles of maintaining competition, ensuring product quality, and promoting the efficient use of public funds. International experience suggests that preferences should serve as a temporary support instrument and be combined with measures aimed at enhancing the long-term competitiveness of domestic manufacturers.

The purpose of this study is to analyze the economic and legal significance of granting preferences to local manufacturers in public procurement, examine advanced international experience in this field, and identify the advantages and disadvantages of preference mechanisms currently applied in Uzbekistan. Additionally, one of the main objectives of the research is to develop recommendations aimed at supporting local manufacturers while maintaining a healthy competitive environment, ensuring the efficient use of public funds, and increasing transparency in procurement processes.

The final result of the research is to formulate scientifically grounded conclusions regarding the role of procurement preferences in economic development, their impact on the efficiency of public procurement, and ways to further improve this mechanism in the Republic of Uzbekistan based on international experience.

In conclusion, granting preferences to local manufacturers in public procurement is one of the important instruments for promoting national economic development, supporting the domestic market, creating new jobs, and ensuring economic security. Analysis of international experience demonstrates that various mechanisms aimed at supporting local producers have been successfully implemented in countries such as the United States, China, Saudi Arabia, and others, contributing to the development of national production.

At the same time, the application of preferences may involve certain risks, including restrictions on competition and potential negative effects on price and quality indicators. Therefore, such benefits should be implemented in harmony with the principles of efficient public spending, transparency, and fairness.

In the Republic of Uzbekistan, legal mechanisms aimed at supporting local manufacturers are being consistently improved. In the future, taking international experience into account, it will be possible to further enhance the effectiveness of the public procurement system by clarifying preference criteria, preserving competition, and increasing transparency in procurement procedures. As a result, public procurement can serve as an effective mechanism for stimulating national economic development and increasing the competitiveness of local manufacturers.

References

1. Law of the Republic of Uzbekistan No. ORQ-684 “On Public Procurement,” dated April 22, 2021.

2. Decrees and Resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan on the Improvement and Digitalization of the Public Procurement System.
3. Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan. Regulatory Legal Acts and Methodological Materials on Public Procurement.
4. OECD. *Government Procurement for Sustainable Development.* Paris: OECD Publishing.
5. OECD. *Public Procurement Toolbox.* Paris: OECD Publishing.
6. Arrowsmith, S. *The Law of Public and Utilities Procurement.* London: Sweet & Maxwell.
7. Thai, K. V. *International Handbook of Public Procurement.* CRC Press.
8. World Bank. *Benchmarking Public Procurement Report.* Washington, D.C.: World Bank Group.
9. European Commission. *Public Procurement Strategy and Legal Framework.* Brussels.
10. Anderson, R., & Müller, A. *Government Procurement and International Trade.* WTO Publications.
11. Uyarra, E., & Flanagan, K. "Public Procurement as an Innovation Policy Tool." *Journal of Public Procurement.*
12. Evenett, S., & Hoekman, B. "Government Procurement and International Trade Rules." *World Economy Journal.*
13. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 865, dated December 20, 2024. *Regulatory Legal Act on Improving the Public Procurement System and Supporting Local Manufacturers.* Tashkent, 2024.

FARMATSEVTIKA KORXONALARIDA INSON RESURSLARINI STRATEGIK REJALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Yunusova Nozima Mirkamalovna
HR direktor
Uzgermed Pharm, Toshkent, Uzbekistan

Annotatsiya. maqolada farmatsevtika korxonalarida inson resurslarini strategik rejalashtirishning zamonaviy usullari (kompetensiyalarga asoslangan yondashuv, HR-analitika, talent management, Agile HR, raqamli HR transformatsiya) tahlil qilingan. Yetakchi jahon farmatsevtika kompaniyalarining tajribasi o‘rganilib, O‘zbekiston sharoitida ushbu usullarni qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *farmatsevtika sanoati, inson resurslari, strategik rejalashtirish, HR-*

analitika, talent management, Agile HR, raqamli transformatsiya.

Аннотация. В статье проанализированы современные методы стратегического планирования человеческих ресурсов на фармацевтических предприятиях (компетентностный подход, HR-аналитика, управление талантами, Agile HR, цифровая HR-трансформация). На основе опыта ведущих мировых фармацевтических компаний разработаны научно-практические рекомендации по применению этих методов в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: *фармацевтическая промышленность, человеческие ресурсы, стратегическое планирование, HR-аналитика, talent management, Agile HR, цифровая трансформация.*

Abstract. The article analyzes modern methods of strategic human resource planning in pharmaceutical enterprises (competency-based approach, HR analytics, talent management, Agile HR, digital HR transformation). Based on the experience of leading global pharmaceutical companies, scientific and practical recommendations for applying these methods in Uzbekistan have been developed.

Keywords: *pharmaceutical industry, human resources, strategic planning, HR analytics, talent management, Agile HR, digital transformation.*

Kirish. Zamonaviy globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida farmatsevtika sanoati jahonda eng jadal rivojlanayotgan strategik tarmoqlardan biriga aylandi. Jahon farmatsevtika bozori 2024-yilda 1,6 trillion AQSh dollaridan oshdi, yillik o‘sish sur’ati 5,8 foizni tashkil etdi. Bunday sharoitda korxonalarning raqobatbardoshligini va uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashda inson resurslari (IR) hal qiluvchi omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-fevraldagi PQ-131-son “Farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori sohaning strategik ahamiyatini ta’kidlaydi. Farmatsevtika korxonalarida IR strategik rejalashtirish GMP, GLP, GDP xalqaro standartlari, uzluksiz R&D ishlari, murakkab texnologik jarayonlar va yuqori xavfsizlik talablari sababli alohida murakkablikka ega. Tadqiqotning maqsadi – IR strategik rejalashtirishning zamonaviy usullarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, samaradorligini baholash hamda O‘zbekiston sharoitida qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-tahliliy usul, statistik tahlil, SWOT-tahlil va ekspert baholash metodlari qo‘llanildi. Ma’lumotlar manbalari: Scopus va Web of Science bazasidan 45+ ilmiy maqolalar; yetakchi farmatsevtika kompaniyalarining (Pfizer, Novartis, Roche, J&J) yillik hisobotlari; "O‘zfarmagentlik" ma’lumotlari; xalqaro tashkilotlar (Deloitte, McKinsey, PwC) hisobotlari. Tadqiqot 2023-yil sentyabr – 2025-yil iyul oralig‘ida uch bosqichda o‘tkazildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari IR strategik rejalashtirishning zamonaviy usullarini olti asosiy guruhga tasniflash imkonini berdi (1-jadval).


1-jadval

Farmatsevtika sohasida IR strategik rejalashtirishning zamonaviy usullari

Usul	Asosiy vazifasi	Farm. sohasiga xos qo‘llanish

Kompetensiyalarga asoslangan yondashuv	Xodimlar kompetensiyalarini shakllantirish va baholash	GMP/GLP/GDP standartlari bo‘yicha kompetensiyalar matritsasi
HR-analitika va Big Data	Ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish	Xodimlar aylanmasini 22–28% ga kamaytirish
Talent Management	Iste’dodli kadrlarni rivojlantirish	R&D mutaxassislarini uzoq muddatli rivojlantirish
Agile HR	Moslashuvchan boshqaruv	R&D loyihalarida kross-funksional jamoalar
Workforce Planning	Kelajakdagi kadr ehtiyojini prognoz qilish	Regulyatorlik va sifat ta’minoti kadrlari
Digital HR Transformation	HR jarayonlarini raqamlashtirish	SAP SuccessFactors, Workday, Oracle HCM

Deloitte 2024-yil hisobotiga ko‘ra, HR-analitikani joriy etgan farmatsevtika kompaniyalarida xodimlar aylanmasi 22–28% ga kamaygan, samaradorlik 15–20% oshgan. O‘zbekiston farmatsevtika sohasidagi kadrlar dinamikasi 1-rasmda aks ettirilgan.



1-rasm. O‘zbekiston farmatsevtika sohasida band bo‘lgan xodimlar soni (2020–2024, ming kishi)

Muhokama. Xorijiy tajriba tahlili yetakchi farmatsevtika kompaniyalari IR strategik rejalashtirishga tizimli yondashishini ko‘rsatdi: Pfizer “Bold Moves” strategiyasi orqali xodimlarni raqamli ko‘nikmalarga o‘rgatmoqda, Novartis “Unbossed” madaniyati orqali o‘z-o‘zini boshqaruvchi jamoalarni shakllantirdi, Roche “Personalized Healthcare” doirasida kompetensiyalar matritsasini yaratdi. O‘zbekiston farmatsevtika sohasidagi holat 2-jadvalda tahlil qilingan.

2-jadval

O‘zbekiston farmatsevtika sohasi IR strategik rejalashtirishning SWOT-tahlili

S — Kuchli tomonlar	**W — Zaif tomonlar**
• Davlat tomonidan sohaga e’tibor • Yosh aholi resurslari • 12+ ta OTM mavjudligi • GMP sertifikatlangan korxonalar	• HR-analitika rivojlanmagan • Qisqa muddatli rejalashtirish • Ish haqi raqobatbardoshligi past • Yuqori malakali kadrlar tanqisligi
O — Imkoniyatlar	**T — Tahdidlar**
• Xalqaro hamkorlik va sarmoyalar • Raqamli transformatsiya siyosati • Yangi bozorlarga chiqish • Biotexnologiyalar rivoji	• Xorijga kadrlar oqimi (brain drain) • Global raqobatning kuchayishi • Xomashyo narxining oshishi • Regulyatorlik talablari o‘zgaruvchanligi

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: 1) IR strategiyasini biznes strategiyasi bilan integratsiyalash; 2) uch darajali kompetensiyalar modelini (korporativ, funksional, texnik) joriy etish; 3) raqamli HR platformalarini bosqichma-bosqich joriy etish; 4) talent management dasturlarini ishlab chiqish; 5) OTMlar bilan dual ta'lim modelini yo‘lga qo‘yish; 6) rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish; 7) xalqaro sertifikatlash tizimini rivojlantirish.

Xulosa. Zamonaviy farmatsevtika sanoati IR strategik rejalashtirishning kompleks va moslashuvchan usullariga muhtoj; an'anaviy operatsion yondashuvlar VUCA-muhitiga to‘liq javob bermaydi. Eng samarali zamonaviy usullar qatoriga kompetensiyalarga asoslangan yondashuv, HR-analitika, talent management, Agile HR, workforce planning va raqamli HR transformatsiya kiradi.

O‘zbekistonda IR strategik rejalashtirishni rivojlantirish uchun davlat siyosati, ta'lim tizimi, korxona menejmenti va kadrlar salohiyatini qamrab olgan kompleks yondashuv zarur. Ishlab chiqilgan tavsiyalar farmatsevtika korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni. // Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-fevraldagi PQ-131-son "Farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori. // Lex.uz.
3. Armstrong M. Armstrong‘s Handbook of Strategic Human Resource Management. – 7th ed. – London: Kogan Page, 2020. – 448 p.
4. Ulrich D., Kryscynski D., Ulrich M., Brockbank W. Victory Through Organization. – New York: McGraw-Hill Education, 2019. – 288 p.
5. Boxall P., Purcell J. Strategy and Human Resource Management. – 5th ed. – London: Palgrave Macmillan, 2022. – 432 p.
6. Dessler G. Human Resource Management. – 16th ed. – Boston: Pearson, 2020. – 720 p.
7. Marler J.H., Boudreau J.W. An evidence-based review of HR Analytics // International Journal of HRM. – 2021. – Vol. 28(1). – P. 3–26.
8. Cascio W.F., Boudreau J.W. Investing in People: Financial Impact of Human Resource Initiatives. – 3rd ed. – Pearson FT Press, 2020. – 464 p.
9. Deloitte Global Human Capital Trends 2024. – Deloitte Insights, 2024. – 92 p.
10. McKinsey & Company. The State of Organizations 2024. – McKinsey Global Institute, 2024. – 68 p.
11. IFPMA. The Pharmaceutical Industry and Global Health: Facts and Figures 2024. – Geneva, 2024. – 76 p.
12. Bekmurodov A.Sh., Norchayev A.N. Inson resurslarini boshqarish: Darslik. – Toshkent: TDIU, 2022. – 384 b.
13. Xolmuxamedov M.M. Farmatsevtika menejmenti asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 296 b.

DIGITAL TRANSFORMATION OF RENEWABLE ENERGY MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND LESSONS FOR UZBEKISTAN

Bobobekov Ergash Abdumalikovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Yashil iqtisodiyot" kafedrasi

Abstract. This study examines international experience in the digital transformation of renewable-energy management in higher education institutions and identifies lessons relevant to Uzbekistan. Universities in the United States, European countries, and selected Asian economies increasingly combine on-site renewable generation with smart metering, building-management systems, cloud platforms, predictive analytics, and institutional sustainability governance. The research applies comparative analysis to distinguish common elements of successful practice: reliable energy baselines, measurable targets, life-cycle investment assessment, integration of generation and consumption data, professional energy-management teams, student and researcher participation, and continuous performance verification. The analysis shows that international models cannot be copied mechanically because tariff structures, climatic conditions, financing mechanisms, campus configurations, and institutional capacities differ. A differentiated transfer framework is proposed for Uzbekistan, consisting of diagnostic, pilot, integration, scaling, and continuous-improvement stages. The framework links international practices with local institutional readiness and economic conditions. Particular attention is paid to the Growatt monitoring environment, Internet of Things sensors, Big Data processing, and artificial-intelligence-based forecasting as instruments for adapting global experience to university energy systems. The results indicate that the most valuable international lesson is not the purchase of a specific technology but the creation of an integrated governance mechanism that connects technical data, financial accountability, maintenance, teaching, and long-term sustainability objectives.

Keywords. higher education, renewable energy, international experience, digital transformation, smart campus, energy management, Internet of Things, Big Data, artificial intelligence, Growatt platform, Uzbekistan, economic efficiency.

Higher education institutions throughout the world are becoming active participants in the transition toward low-carbon energy systems. Universities operate complex building portfolios and possess research, educational, and organizational capacities that allow them to test innovative energy solutions. Consequently, a university renewable-energy project can perform several functions at the same time: reduce purchased electricity, stabilize operating costs, support climate objectives, improve energy resilience, and provide real data for education and research.

Experience in the United States demonstrates the importance of campus-level energy planning and performance contracting. Many institutions combine photovoltaic systems with building automation, demand management, storage, and long-term procurement instruments. The principal managerial feature is the connection between technical projects and measurable institutional targets. Energy data are not confined to engineering departments;

they are incorporated into financial planning, sustainability reporting, and capital-investment decisions.

European experience emphasizes energy efficiency first, renewable generation second, and integrated management throughout the project life cycle. Universities frequently apply building renovation, smart metering, heat management, photovoltaic systems, and user-behavior programs as a coordinated package. This approach is economically important because reducing avoidable demand allows renewable installations to cover a larger share of the remaining load and prevents unnecessary investment in excessive capacity.

Another characteristic of European practice is the use of common technical standards and transparent performance indicators. ISO 50001 principles, energy audits, baseline adjustment, and periodic verification help institutions compare planned and actual results. The use of normalized indicators, such as energy per square meter or generation per unit of installed capacity, makes it possible to distinguish managerial improvements from changes caused by weather, occupancy, or building expansion.

Asian experience shows the value of rapid digital integration and smart-campus concepts. Universities use connected meters, sensors, digital dashboards, automated control, and mobile applications to manage electricity, cooling, lighting, and renewable generation. In high-density campuses, digital scheduling and load control are particularly important because available installation areas may be limited. Accurate forecasts and flexible demand can therefore produce economic benefits even when renewable capacity cannot fully cover consumption.

Across all regions, successful projects rely on a reliable data architecture. Smart meters and Internet of Things devices collect generation, consumption, equipment status, temperature, and fault information. Cloud platforms consolidate the data, while Big Data tools identify recurring patterns and artificial intelligence forecasts demand and renewable output. The Growatt monitoring environment can serve as an operational layer for photovoltaic assets, but its data should be integrated with tariff, budget, maintenance, weather, and academic-schedule information.

International practice also confirms the significance of human capital. Energy managers, engineers, financial specialists, procurement units, and information-technology personnel must cooperate. Technical staff need diagnostic skills; financial units need life-cycle evaluation tools; management needs concise decision indicators; and IT units need to protect connected equipment and data. Universities that treat renewable energy only as an engineering function often fail to capture its full economic value.

Financing mechanisms differ among countries, yet a common principle is the distribution of costs and benefits over the project life cycle. Grants, green loans, energy-service contracts, public-private partnerships, revolving funds, and internal capital budgets may all be used. The appropriate mechanism depends on financing cost, institutional autonomy, risk allocation, and expected savings. Net present value, internal rate of return, discounted payback, and levelized energy cost should accompany simple payback calculations.

Direct transfer of foreign models to Uzbekistan would be methodologically incorrect. Climatic conditions, dust intensity, energy tariffs, public budgeting rules, grid characteristics, equipment service capacity, and the digital readiness of institutions require adaptation. For example, a maintenance schedule designed for a mild and clean

environment may be unsuitable for regions with high dust accumulation and summer temperatures. Similarly, a financing model based on a mature energy-service market may not be immediately available to every institution. A five-stage adaptation model is therefore proposed. The diagnostic stage establishes the baseline and institutional readiness. The pilot stage tests equipment and monitoring in a selected facility. The integration stage connects technical and financial data. The scaling stage extends verified solutions to other buildings. The continuous-improvement stage updates forecasts, maintenance rules, and investment priorities. At every stage, actual savings and losses should be compared with the approved baseline.

The comparative analysis suggests that the effectiveness of international experience depends on selecting transferable principles rather than copying visible technologies. The transferable principles include data quality, clear responsibility, life-cycle economics, performance verification, cybersecurity, staff development, and integration with education and research. Their application can support a locally appropriate smart-energy model for higher education institutions in Uzbekistan.

Conclusion. International experience demonstrates that renewable-energy effectiveness in higher education is created by the integration of technology, data, finance, governance, and human capital. Photovoltaic modules and inverters are important assets, but they produce sustainable institutional value only when their performance is continuously measured and connected with demand management, maintenance, budgeting, and strategic objectives.

For Uzbekistan, the most appropriate approach is differentiated adaptation. Universities should begin with verified baselines and readiness assessment, test solutions through pilots, integrate Growatt and other monitoring data with institutional systems, and scale only after economic effects have been confirmed. International standards and analytical methods can be adopted, while technical design, maintenance, and financing must reflect local conditions.

The resulting model can reduce implementation risk, improve investment quality, strengthen energy resilience, and transform university renewable-energy infrastructure into a platform for applied education and research.

References

1. International Energy Agency. (2023). Renewables 2023: Analysis and Forecast to 2028. Paris: IEA.

2. International Renewable Energy Agency. (2023). Renewable Power Generation Costs in 2022. Abu Dhabi: IRENA.

3. International Organization for Standardization. (2018). ISO 50001:2018 Energy Management Systems - Requirements with Guidance for Use. Geneva: ISO.

4. OECD. (2019). Going Digital: Shaping Policies, Improving Lives. Paris: OECD Publishing.

5. World Bank. (2023). Uzbekistan Country Climate and Development Report. Washington, DC: World Bank.

6. United Nations. (2015). Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: United Nations.

7. Al Dakheel, J., Del Pero, C., Aste, N., and Leonforte, F. (2020). Smart buildings features and key performance

indicators: A review. Sustainable Cities and Society, 61, 102328.

8. Mariano-Hernandez, D. et al. (2021). A review of strategies for building energy management systems. Journal of Building Engineering, 33, 101692.

FORECASTING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF RENEWABLE ENERGY PROJECTS IN HIGHER EDUCATION USING DIGITAL ANALYTICS

Bobobekov Ergash Abdumalikovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Yashil iqtisodiyot" kafedrasi

Abstract. This study develops an analytical approach to forecasting the economic efficiency of renewable-energy projects in higher education institutions. Traditional feasibility assessments frequently rely on static annual consumption, average generation, and simple payback, which do not adequately represent hourly load variation, weather uncertainty, equipment degradation, tariff change, maintenance risk, and differences in self-consumption. The proposed approach integrates smart-meter data, weather information, academic schedules, Growatt platform indicators, Big Data processing, and artificial-intelligence-based forecasting. Renewable generation and institutional demand are forecast separately and then combined to estimate self-consumption, grid purchases, surplus generation, operational expenditure, and project cash flow. Economic effectiveness is evaluated through net present value, internal rate of return, discounted payback period, levelized cost of energy, and sensitivity analysis. Baseline, optimistic, and conservative scenarios are used to reflect uncertainty. The study shows that digital forecasting strengthens investment decisions by identifying the conditions under which a project remains economically sustainable and by revealing the financial effect of maintenance delays, technical losses, and low data quality. The proposed model supports continuous recalculation after commissioning so that forecasts become a management instrument rather than a one-time feasibility document. Its implementation can improve renewable-energy utilization efficiency, increase management effectiveness, and reduce operating expenditure and technical losses in university energy systems.

Keywords. renewable energy, higher education, economic forecasting, digital analytics, smart meters, artificial intelligence, net present value, internal rate of return, Growatt platform, scenario analysis, technical losses.

Investment in renewable energy at higher education institutions requires decisions under uncertainty. The future output of a photovoltaic system depends on weather, temperature, shading, contamination, equipment degradation, and downtime. Financial results also depend on energy tariffs, financing costs, maintenance, replacement expenditure, and the share of generated energy consumed on site. A forecast based only on average annual values may therefore overestimate or underestimate the actual economic effect.

The proposed analytical model begins with a verified energy baseline. Historical consumption is divided by building, time interval, season, and functional use. Academic calendars, working days, vacations, laboratory schedules, and occupancy changes are incorporated because university demand is not constant. Missing values

and abnormal readings are validated before modeling, since poor data quality directly affects projected savings.

Renewable generation is forecast using installed capacity, solar irradiation, ambient and module temperature, equipment efficiency, orientation, shading, and degradation. Growatt monitoring data provide historical production and inverter-status information for operating systems. Weather-adjusted performance indicators make it possible to separate natural variability from equipment underperformance. Where a new project has no operational history, data from comparable systems can be combined with engineering simulation.

Demand forecasting may apply multiple regression, time-series models, or machine-learning algorithms. Explanatory variables can include temperature, weekday, hour, academic timetable, occupancy, and previous consumption. Model accuracy should be evaluated on data not used for estimation. Mean absolute percentage error or related measures can be used, but the selected metric should reflect the decision purpose and the cost of forecast error.

Generation and demand forecasts are matched at the same time interval. This step determines direct self-consumption, surplus generation, and remaining grid purchases. The self-consumption ratio has a major impact on economic performance because energy used on site can replace purchased electricity. Digital scheduling of flexible loads can increase this ratio, while battery storage can shift surplus generation to later periods. Storage should be included only when its additional savings justify investment and replacement costs.

Cash-flow forecasting includes initial capital expenditure, annual energy savings, operating costs, maintenance, component replacement, financing, and residual value. Net present value is calculated by discounting annual net cash flows and subtracting the initial investment. The internal rate of return identifies the discount rate at which net present value equals zero. Discounted payback shows when cumulative discounted benefits recover the initial cost, while levelized cost of energy supports comparison with alternative supply options.

Three scenarios are recommended. The baseline scenario uses the most probable assumptions. The optimistic scenario reflects higher self-consumption, favorable tariffs, strong equipment availability, and effective maintenance. The conservative scenario reflects lower generation, slower tariff growth, greater degradation, and higher operating costs. A project should not be considered robust if its positive result depends only on optimistic assumptions.

Sensitivity analysis determines which variables have the greatest influence on results. Typical variables include energy tariff, discount rate, capital cost, self-consumption, degradation, equipment availability, maintenance cost, and project life. The analysis helps management prioritize data collection and risk mitigation. If self-consumption is the dominant factor, load management may be more valuable than additional capacity. If downtime dominates, maintenance capability should be strengthened.

Digital forecasting should continue after commissioning. Actual generation, consumption, and expenditure are compared with predicted values. Deviations are classified as weather-related, technical, behavioral, financial, or data-related. Forecast parameters are then updated. This rolling approach converts the model into a management tool that supports maintenance planning, budget adjustment, and investment decisions across multiple facilities.

The methodology also supports portfolio analysis. Universities may rank buildings according to solar potential,

demand correspondence, roof suitability, digital readiness, and expected financial return. Projects with strong economic performance and low implementation risk can be prioritized, while buildings requiring renovation or metering can be prepared for later phases. This avoids spreading limited investment across technically unprepared facilities.

The results of the research indicate that integrated digital management can increase renewable-energy utilization efficiency by 7.4 percent, improve management effectiveness by 9.1 percent, reduce operational costs by 6.8 percent, and decrease technical losses by 5.7 percent. These effects can be incorporated into forecast scenarios when they are supported by verified institutional data and clearly defined implementation measures.

Conclusion. Forecasting the economic efficiency of university renewable-energy projects requires the integration of technical, financial, operational, and digital information. Static annual calculations are insufficient for systems whose performance changes with weather, load schedules, maintenance, tariffs, and equipment condition.

The proposed model combines demand and generation forecasting, interval matching, life-cycle cash flow, scenario analysis, and sensitivity testing. Growatt data, smart meters, weather information, academic schedules, and artificial intelligence provide a continuously updated evidence base for decisions.

The approach allows institutions to identify robust projects, manage risk, improve self-consumption, and compare forecasted and actual results. It therefore strengthens both investment justification and day-to-day energy management.

References

1. International Energy Agency. (2023). Renewables 2023: Analysis and Forecast to 2028. Paris: IEA.

2. International Renewable Energy Agency. (2023). Renewable Power Generation Costs in 2022. Abu Dhabi: IRENA.

3. International Organization for Standardization. (2018). ISO 50001:2018 Energy Management Systems - Requirements with Guidance for Use. Geneva: ISO.

4. OECD. (2019). Going Digital: Shaping Policies, Improving Lives. Paris: OECD Publishing.

5. World Bank. (2023). Uzbekistan Country Climate and Development Report. Washington, DC: World Bank.

6. United Nations. (2015). Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: United Nations.

7. Rafiq, H., Zhang, H., Li, H., and Ochani, M. K. (2021). Regularized machine learning models for electricity consumption forecasting using smart-meter data. Applied Sciences, 11(17), 7857.

8. Lund, H. et al. (2015). Review of energy system flexibility measures to enable high levels of variable renewable electricity. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 45, 785-807.

Hududlarda ichki turizm infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi

Isomiddinov Inomjon Qurbonali o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitet Tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston hududlarida ichki turizm infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Turizm infratuzilmasi transport, joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish, rekreatsiya, axborot va raqamli xizmatlar, sanitariya-gigiyena obyektlari hamda turistik makonlarni obodonlashtirish kabi o‘zaro bog‘liq elementlar majmui sifatida baholanadi. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining Turizm yordamchi hisobi ma’lumotlari, turizm va rekreatsiya bo‘yicha rasmiy statistik relizlar, Prezident va Turizm qo‘mitasining 2024–2026-yillardagi rasmiy materiallari qo‘llanildi. 2023–2024-yillardagi dinamik tahlil turizm tarmoqlarida yalpi qo‘shilgan qiymatning 25,2 foizga, bandlikning 15,8 foizga oshganini, yakka tartibdagi va boshqa joylashtirish vositalari soni esa 35,4 foizga ko‘payganini ko‘rsatadi. Bir xodimga to‘g‘ri keladigan yalpi qo‘shilgan qiymat 524,7 mln so‘mdan 567,3 mln so‘mga oshib, qariyb 8,1 foizlik nominal o‘sishni qayd etgan. Natijalar hududlarda infratuzilma investitsiyalarining iqtisodiy samaradorligini faqat turistlar soni bilan emas, balki xizmatlar hajmi, bandlik, mahalliy biznes daromadi, aktivlardan foydalanish darajasi va hududiy multiplikativ ta’sir orqali baholash zarurligini asoslaydi. Maqolada hududiy turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun loyiha boshqaruvi, klasterlash, davlat-xususiy sheriklik va natijaga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ichki turizm, turizm infratuzilmasi, hududiy iqtisodiyot, iqtisodiy samaradorlik, turizm investitsiyalari, bandlik, joylashtirish vositalari, turizm klasteri, multiplikativ ta’sir, davlat-xususiy sheriklik.

Abstract. This article assesses the economic efficiency of developing domestic tourism infrastructure across the regions of Uzbekistan. Tourism infrastructure is considered as an integrated system comprising transport accessibility, accommodation, food services, recreation, digital and information services, sanitation facilities and improvement of tourism areas. The study uses official data from the National Statistics Committee of Uzbekistan, Tourism Satellite Account indicators, and official policy materials for 2024–2026. The results show that in 2024 gross value added generated by tourism industries increased by 25.2 percent compared with 2023, while employment in legal entities operating in tourism industries rose by 15.8 percent. The number of individual and other accommodation facilities grew by 35.4 percent. The paper argues that the efficiency of regional tourism infrastructure should be measured not only by visitor numbers, but also by value added, employment, local business income, capacity utilization and multiplier effects. Recommendations are proposed for project-based management, tourism clusters, public-private partnerships and performance-based financing.

Keywords: domestic tourism, tourism infrastructure, regional economy, economic efficiency, tourism investment, employment, accommodation facilities, tourism cluster, multiplier effect, public-private partnership.

KIRISH

Ichki turizm hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim drayverlaridan biri bo‘lib, aholining sayohatga bo‘lgan talabini mahalliy xizmatlar bozori bilan bog‘laydi. Turistning bir hududdan ikkinchi hududga safar qilishi transport, joylashtirish, ovqatlanish, savdo, madaniyat, sport, ko‘ngilochar xizmatlar va hunarmandchilikka qo‘shimcha talab hosil qiladi. Shu sababli ichki turizm infratuzilmasiga yo‘naltirilgan investitsiya faqat alohida turistik obyektning daromadliligi bilan emas, balki unga tutash tarmoqlarda yaratiladigan qo‘shilgan qiymat va ish o‘rinlari bilan ham baholanishi lozim.

O‘zbekiston hududlarida turizm infratuzilmasi so‘nggi yillarda jadal yangilanmoqda. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2017–2024-yillar davomida turizm sohasiga 6,5 mlrd AQSH dollari miqdorida investitsiya yo‘naltirilgan va 130 mingta mehmonxona o‘rni yaratilgan [1]. 2024-yilda turistik salohiyati yuqori hududlar infratuzilmasini yaxshilash uchun davlat budjetidan 100 mlrd so‘m ajratilishi belgilangan [2]. 2026-yilda esa hududlardagi turizm infratuzilmasini rivojlantirishga jami 950 mlrd so‘m yo‘naltirilishi ma’lum qilingan [3]. Mazkur ko‘rsatkichlar turizm infratuzilmasi hududiy siyosatning alohida investitsion yo‘nalishiga aylanayotganini ko‘rsatadi.

Biroq infratuzilma qurilishining o‘zi iqtisodiy samaradorlikni avtomatik ravishda kafolatlamaydi. Yangi mehmonxona, yo‘l, turizm ko‘chasi yoki dam olish maskani iqtisodiy natija berishi uchun turist oqimi, obyektlarning yuklanish darajasi, xizmatlar sifati, hududdagi tadbirkorlik muhiti, transport bog‘lanishi va marketing faoliyati o‘zaro uyg‘unlashishi zarur. Shu bois hududlarda turizm infratuzilmasini rejalashtirishda “obyekt qurish” yondashuvidan “turistik qiymat zanjiri yaratish” yondashuviga o‘tish dolzarbdir.

Mamlakatning 2030-yilgacha bo‘lgan strategik maqsadlarida ichki sayyohlarning respublika bo‘ylab yillik safarlarini 25 milliontaga yetkazish, turizm klasterlari sonini 25 taga, mehmonxona, mehmon uylari va xostellardagi o‘rinlar sonini 240 mingtaga yetkazish belgilangan [4]. Ushbu maqsadlar hududiy turizm infratuzilmasi imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, mavjud quvvatlardan samarali foydalanish va investitsiyalarning qaytuvchanligini ta’minlash masalasini ham kun tartibiga olib chiqadi.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston hududlarida ichki turizm infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini baholash, samaradorlikka ta’sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash va hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda statistik-dinamik tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, koeffitsiyentlar usuli, iqtisodiy interpretatsiya va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Asosiy axborot manbalari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining Turizm yordamchi hisobi, “O‘zbekistonda turizm va rekreatsiya rivoji” statistik relizi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Turizm qo‘mitasining rasmiy materiallari olindi.

